



“TASDIQLAYMAN”

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ

Boshqaruv raisi

Sh.P.Alimov

2024 yil “11” oktabr

**“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati Axloq komissiyasining
3-sonli BAYONI**

Toshkent shahri

2024-yil “10” oktabr

Komissiya raisi:

Moliyaviy ishlar bo‘yicha direktor

R. Radjapov

Komissiya raisi o‘rinbosari:

Kapital ta‘mirlash va ijtimoiy masalalar
bo‘yicha departament direktori

Y. Zakirov

Komissiya a‘zolari:

Boshqaruv raisi o‘rinbosari-bosh muhandis

Sh. Sirajov

Xaridlar bo‘yicha direktor

Z. Ismailov

Yuridik bo‘lim boshlig‘i

G‘. Chuponov

Qimmatbaho metallar geologiyasi boshqarma boshlig‘i

Y. Jurayev

Ishlar boshqarmasi boshlig‘i

A. Madjitov

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi
bosh mutaxassisi

D. Saidaxborov

Boshlang‘ich Kasaba uyushmasi raisi

M.Iminov

Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich
tashkilot raisi

G.Jabborova

Komissiya kotibi:

Inson resurslarini boshqarish va
rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i

F.Umarov

Yig'ilish kun tartibi:

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiya arizalarini qolgan qismi tahlilini ko‘rib chiqish.

ESHITILDI:

1. Kun tartibi masalasi bo‘yicha Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i D. Saidaxborov 2024 yil 15 apreldagi Axloq komissiyasi tomonidan 1 aprel holatiga 3253 nafar xodimdan **1969 nafari** manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklaratsiyasi tahlili ko‘rib chiqilganligi va 1 oktabr holatiga 4200 yaqin xodimdan **1793 (jami-3762)** nafarining manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklaratsiyasi tahlili ko‘rib chiqilishi lozimligi ta’kidlandi. Axloq komissiyasiga tarkibiy bo‘linmalar va boshqaruv apparati Kadrlar va ularning malakasini oshirish bo‘limining tahliliy natijalari bo‘yicha ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvlari bor yoki yo‘qligi to‘g‘risidagi joylardagi komissiya xulosalari o‘qib eshittirdi. Bunda jami, tarkibiy bo‘linmalar Axloq komissiyalari yig‘ilish qarorlariga ko‘ra 01.04.2024-01.10.2024 yil davr oralig‘ida:

“Qizilqum” MGQE 339 nafar, “Samarqand” MGQE 352 nafar, “Toshkent” MGQE 424 nafar, “Regional” MGTE 678 nafar.

Tahlillar natijasida to‘ldirilgan deklaratsiyalarda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligini, dala ekspeditsiyalarda bir biriga bo‘ysunuvda bo‘lgan yaqin qarindoshlar ishlashi ma’lum qildi.

D. Saidaxborov tomonidan Axloq komissiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 121-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 133-sonli qarori 3-ilovasi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Toshkent shahar Bandlik bosh boshqarmasi Davlat mehnat inspeksiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2022 yildagi amaliy yordam hamda tavsiya xatlarini taqdim etdi.

SO‘ZGA CHIQDI: Kapital ta’mirlash va ijtimoiy masalalar bo‘yicha departament direktori Y. Zakirov va Yuridik bo‘lim boshlig‘i G‘. Chuponov O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 121-moddasida “O‘zaro yaqin qarindosh yoki quda-anda bo‘lgan shaxslarning (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘il va qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va bolalari), basharti ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo‘ysunib yoki uning nazorati ostida xizmat qiladigan bo‘lsa, bir davlat korxonasida birga xizmat qilishlari taqiqlanishi”ni biroq, mazkur moddaning ikkinchi qismida bu qoidadan istisnolar O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanishi mumkinligini ta’kidladi.

Davlat (aksionerlik) korxonalarining Mehnat kodeksining 121-moddasida nazarda tutilgan qarindosh-urug‘larning, agar ularning xizmatlari ulardan birining boshqasiga bevosita bo‘ysunishi yoki nazorati ostida bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsa, birga xizmat qilishlarini cheklash qoidalaridan istisno etilishi mumkin bo‘lgan xodimlari ro‘yxati Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 133-sonli qarori

xodimlari ro'yxati Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, uning 10-bandida aynan dala geologiya ekspeditsiyalari, partiyalari, otryadlari va uchastkalari xodimlari qayd etilganligini ma'lum qilib, yuqoridagi qayd etilgan holatlarga mazkur normani qo'llash mumkin emasligini e'tirof etdi.

SO'ZGA CHIQDI: Komissiya raisi R.Radjabov yuqoridagi ro'yxat va tegishli tashkilotlar amaliy yordamlariga tayanib tarkibiy bo'linmalarda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvlari deya taqdim etilgan holatlardan faqatgina Jamiyat boshqaruv apparati va tarkibiy bo'linma rahbarlari (boshliq, bosh muhandis, bosh geolog), iqtisodiy masalalar, hamda moddiy javobgar xodimlarda manfaatlar to'qnashuvlari yuzaga kelganda, shularnigina ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi deya olib ular bilan ichki me'yoriy hujjatlar talablari doirasida ish tutishni ta'kidladi.

SO'ZGA CHIQDI: Qimmatbaho metallar geologiyasi boshqarma boshlig'i Y.Juraev, Boshqaruv raisi o'rinbosari-bosh muhandis Sh.Sirajov va Boshlang'ich Kasaba uyushmasi raisi M.Iminovlar so'zga chiqib Jamiyat tarkibiy bo'linmalarida ishga borishni xohlovchilarning kamligi va tarkibiy bo'linmalar markazlardan uzoqda hamda oilaviy ko'chib borib ishlash kerakligini e'tiborga olgan holda Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari partiya, sex, uchastka ishchi xodimlarini lavozimlaridagi yaqin qarindoshlarni (moddiy javobgarlikka ega xodimlar bundan mustasno) bir joyda ishlashiga qarshilik qilish va e'tiroz bildirish kerak emasligini ta'kidlashdi.

Komissiya a'zolarining fikr va takliflarini inobatga olib:
Komissiya,


QAROR QILADI:

1. Tarkibiy bo'linmalar axloq komissiyalar tahlili natijalari qabul qilinsin. Hamda dala ekspeditsiyalardagi manfaatlar to'qnashuvlarining barchasi yuqoridagi asoslarga muvofiq manfaatlar to'qnashuvi emas deb hisoblansin.
2. Jamiyat boshqaruv apparati va tarkibiy bo'linma rahbarlari (tarkibiy bo'linma boshlig'i, bosh muhandisi, bosh geologi), iqtisodiy masalalar, hamda moddiy javobgar xodimlar va ularning yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslar o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvlariga yo'l qo'yilmasin.
3. Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi (xizmati) tomonidan manfaatlar to'qnashuvi nazoratini olib borsin.
4. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi tomonidan doimiy monitoringlar o'tkazilsin.
5. Mazkur qaror ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Komissiya raisi:
Moliyaviy ishlar bo'yicha direktor


R.Radjabov

Komissiya kotibi:
Inson resurslarini boshqarish va
rivojlantirish bo'limi boshlig'i


F.Umarov